XALQ DEPUTATLARI TOSHLOQ TUMAN KENGASHINING

Q A R O R I

2021 - yil 30 - dekabr VI-51-75-11-160-K/21 Toshloq tumani hokimligi

Toshloq tumanining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda Farg‘ona viloyati moliya bosh boshqarmasining 2021 yil 30 dekabrdagi 01/01-38/1105-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2021 yil 30 dekabr kungi VI-39-64-11-0-K/21-son “Farg‘ona viloyatining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qaroriga asosan xalq deputatlari Toshloq tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2021 yil 30 dekabr kungi VI-39-64-11-0-K/21-son “Farg‘ona viloyatining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2021 yil 30 dekabrdagi O‘RQ-742-son Qonuni, xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2021 yil 30 dekabr kungi VI-39-64-11-0-K/21-son “Farg‘ona viloyatining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq, Toshloq tumani mahalliy byudjetining 2022 yilgi daromadlari **71 383,0 mln.so‘m** va xarajatlari **180 766,7 mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar **75 994,7 mln.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Toshloq tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

Tuman mahalliy byudjetining 2022 yildagi xarajatlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman mahalliy byudjetining 2022 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

7. 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 704,5 mln. so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, tuman byudjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini Byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

8. 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 883,0 mln. so‘m 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

9. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan erlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan erlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 8-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida

tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda:

a) Quyidagi soliq turlari:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i;

aylanmadan soliq;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar shahar va tumanlar byudjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi;

b) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar tuman byudjetiga taqsimlanadi:

qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning 50 foizi;

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aksiz solig‘idan tushumlarning 20 foizi;

jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 50 foizi;

yuridik shaxslar er va mol-mulk soliqlag‘i hamda suv resurslaridan foydalanganlik solig‘idan tushumlarning 50 foizi;

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (K.Umarov), moliya bo‘limi mudiri (J.Qurbonov), Davlat soliq inspeksiyasi (D.Tashmatov) 2022 yilgi mahalliy byudjetida belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

12. Belgilansinki:

tuman hokimligi, mas’ul idora va tashkilotlar tomonidan 2022 yilda byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash

hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilsin.

13. Davlat soliq inspeksiyasi (D.Tashmatov):

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

Soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

Yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

Aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borish vazifasi yuklatilsin.

14. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (D.Tashmatov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (D.Mo‘minov) 2022 yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasinlar.

15. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (D.Tashmatov), tuman ekologiya bo‘limi (T.Umarov) hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan

karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

16. Majburiy ijro byurosi Toshloq tuman bo‘limi (Q.Maxmudov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (D.Tashmatov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

17. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (S.Usmonov), tuman hokimligi jismoniy shaxslarning er va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsinlar.

18. Kadastr agentligi Toshloq tuman bo‘limi (D.Mo‘minov) tuman hokimligi bilan birgalikda:

Bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va
video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «e-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

19. Tuman hokimligi va tuman davlat soliq inspeksiyasi (D.Tashmatov),

tuman moliya bo‘limi (J.Qurbonov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslarning 2021 yil yakunlari bo‘yicha sof foydasidan byudjetga ajratmalarni 2022 yilning 1 sentyabridan kechiktirmasdan byudjetga undirilishini ta’minlasinlar.

20. Tuman hokimligi tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilishini ta’minlasin.

21. Irigatsiya bo‘limi (A.O‘tamboyev) va tuman davlat soliq inspeksiyasi (D.Tashmatov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

22. Qonunning 13-moddasiga muvofiq:

tuman hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha Qonunning 6-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, Vazirlar Mahkamasiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan;

tuman hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha mazkur qarorning 2-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari tuman hokimliklarining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan murojaat qilishi to‘g‘risidagi belgilangan tartibga amal qilsinlar.

Tuman mahalliy byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida

shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirilsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, tuman hokimligi, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ulligi belgilab qo‘yilsin.

23. Tuman mahalliy byudjeti, byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlar tegishli ravishda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan, tuman hokimligining takliflariga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirish maqsadida qabul qilinadi.

Tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar tuman hokimligi tomonidan majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladi.

24. Tuman hokimligi tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar mahalliy byudjetining ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manba hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

25. Tuman hokimligi, byudjet mablag‘lari taqsimlovchilari hamda mas’ul idora va tashkilotlari:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin;

qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurish, rekonstruksiya va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tegishli ravishda majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borsin;

mahalliy byudjeti qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni

moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlarida ularning natijalarini joylashtirib borilishini ta’minlasin.

26. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (K.Umarov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli idora va tashkilotlar rahbarlari:

Byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

tegishliligi ravishda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning byudjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

27. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

28. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

29. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

30. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi (M.Djo‘raboyev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (K.Umarov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Djurabayev**

Халқ депутатлари Тошлоқ туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-51-75-11-160-K/21-сон қарорига
1-илова

Toshloq tuman mahalliy byudjetining 2022 yil uchun xarajatlar ko‘rsatkichi

ming so‘m

Ko‘rsatkichlar		Toshloq tumani
	XARAJATLAR-JAMI	**180 766 678**
1.	**IJTIMOIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASHGA XARAJATLAR - JAMI**	**142 530 213**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	21 591 933
	- maktabgacha ta’lim	11 895 921
	- umumiy ta’lim	9 696 012
	- kadrlar tayyorlash	0
1.2	Sog‘liqni saqlash	62 576 174
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	5 127 069
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 519 993
	- sport	3 607 076
1.4	Tibbiy ijtimoiy xizmatlar bo‘limi (Yolg‘iz qariyalar uchun oziq-ovqat)	15 060

1.5	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	53 133 023
1.14	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	86 954
2.	**IQTISODIYOTGA XARAJATLAR**	**10 767 390**
	shu jumladan:	
2.3	Obodonlashtirish	8 308 072
2.16	Veterinariya qo‘mitasi	974 318
2.17	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 485 000
3.	**MARKAZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHGA XARAJATLAR**	**0**
4.	**DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARINI SAQLASH**	**9 678 389**
	shu jumladan:	
4.1	Davlat xokimiyati organlari	
4.2	Davlat boshqaruv idoralari	9 678 389
5.	**FUQAROLARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINI SAQLASH**	**4 984 988**
6.	**Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari**	**2 035 688**
7.	**Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari**	**457 531**
6.	**ZAHIRA JAMG‘ARMASI**	**1 704 542**
7.	**BOSHQA XARAJATLAR**	**8 607 937**
	shu jumladan:	

7.1	Mahalliy byudjetdan moliyalashtiriladigan boshqa muassasalar va tadbirlar	0
7.2	Qabullar uyini saqlash xarajatlari	0
7.3	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	8 607 937
7.4	Advokatlik xizmatlari xarajatlari	0
7.5	Chet el kreditlarini qoplash	
	JAMI MAHALLIY DAROMADLAR	**104 772 000**
	TRANSFERT	**75 994 678**

Халқ депутатлари Тошлоқ туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-51-75-11-160-K/21-сон қарорига
2-илова

Toshloq tuman mahalliy byudjeti daromadlarining

2022 yil uchun prognoz ko‘rsatkichlari

ming.so‘m

№	Daromadlar nomi	Summa
I.	**Tartibga soluvchi daromadlar**	**31 760 500**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*31 760 500*
2	YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**39 622 500**
	To‘liq tuman mahalliy byudjetiga	**24 618 000**

1	Korxonalar aylanmasidan soliq	9 908 000
2	YAkka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	649 000
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 441 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i	9 367 000
5	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	253 000
	Viloyat va tuman mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar	**15 004 500**
1	Qurilish materiallari bo‘yicha er qaridan foydalanganlik uchun soliq	*329 000*
2	YAkuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	*5 285 000*
3	YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*2 498 500*
4	YUridik shaxslardan undiriladigan er solig‘i	*4 732 000*
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*2 160 000*
III.	**Mahalliy byudjet daromadlari prognozi**	**71 383 000**
IV.	**O‘tkazib beriladigan daromadlar**	**33 389 000**

	Aholi soni (ming.kishi) 01.07.2021 holatiga	*207*
14	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	12 637 000
15	Mobil aloqa xizmatini ko‘rsatganlik uchun aksiz solig‘i	7 200 000
16	Tamaki mahsulotlari bo‘yicha aksiz solig‘i	13 552 000
V.	**Mahalliy byudjetlarning jami daromadlari**	***104 772 000***
VI.	**Mahalliy byudjetlarning jami xarajatlari**	**180 766 678,0**
VII.	**Transfertlar**	**75 994 678**

Халқ депутатлари Тошлоқ туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-51-75-11-160-K/21-сон қарорига
3-илова

2022 yil uchun byudjet daromadlarining mahalliy byudjetlar o‘rtasida taqsimlanishi bo‘yicha ajratma me’yorlari

T/R	Tumanlar nomi	Korxonalar aylanmasidan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘i	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz soliq	Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan er solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslar er solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq
1	Toshloq tumani	100	50	100		20	100	100	50	100	50	50	50

Халқ депутатлари Тошлоқ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-51-75-11-160-K/21-сон қарорига
4-илова

Toshloq tumani mahalliy byudjetining 2022 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

№	**Hudud nomi**	**Daromad**	**Xarajat**
JAMI		**104 772 000,0**	**180 766 678,0**
1	Toshloq tumani	104 772 000,0	180 766 678,0

Халқ депутатлари Тошлоқ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-51-75-11-160-K/21-сон қарорига
5-илова

Toshloq tuman mahalliy byudjetining 2022 yil uchun yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

№	**Shahar va tumanlar**	Tartibga soluvchi transfert miqdori jami
	JAMI	**75 994 678**
1	Toshloq tumani	75 994 678

Халқ депутатлари Тошлоқ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-51-75-11-160-K/21-сон қарорига
6-илова

2022 yilda Toshloq tuman mahalliy byudjetida aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**883 000,0**
1	Toshloq tumani	883 000,0

Халқ депутатлари Тошлоқ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-51-75-11-160-K/21-сон қарорига
7-илова

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

			ming so‘mda
T/r	**Hudud nomi**	**Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)**	**Er solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (ming.so‘m)**
1	Toshloq MFY	1,10	31 900,0
2	Shodlik MFY	1,10	31 900,0
3	Suvboshi MFY	1,10	31 900,0
4	Furqat MFY	1,10	31 900,0
5	Do‘stlik MFY	1,10	31 900,0
6	Sadda MFY	1,10	31 900,0
7	Teraktagi MFY	1,10	31 900,0
8	Konizar MFY	1,10	31 900,0
9	Kattako‘cha MFY	1,10	31 900,0
10	So‘filar MFY	1,10	31 900,0
11	So‘kchilik MFY	1,10	31 900,0
12	Qo‘rg‘oncha MFY	1,10	31 900,0
13	Xamrak MFY	1,10	31 900,0
14	Qamchipurush MFY	1,10	31 900,0
15	Piyozchilik MFY	1,10	31 900,0
16	Axshak MFY	1,10	31 900,0
17	Yakkovut MFY	1,10	31 900,0
18	Qanjirg‘a MFY	1,00	29 000,0
19	Axshakguzar MFY	1,00	29 000,0
20	Tog‘liq MFY	1,00	29 000,0
21	Xotinqumi MFY	1,00	29 000,0
22	Varzak MFY	1,00	29 000,0
23	Qipchoqariq MFY	1,00	29 000,0

24	O‘zbekiston MFY	1,00	29 000,0

25	Bo‘ston MFY	0,90	26 100,0
26	Zarkent MFY	1,00	29 000,0
27	Jarqishloq MFY	1,00	29 000,0
28	Chuqurqishloq MFY	1,00	29 000,0
29	Yangiyo‘l MFY	1,00	29 000,0
30	Turvat MFY	0,90	26 100,0
31	Yuqoriqishloq MFY	0,90	26 100,0
32	Guzarboshi MFY	1,00	29 000,0
33	Soybo‘yi MFY	1,00	29 000,0
34	Ucholish MFY	1,00	29 000,0
35	Quyi YAkkatut MFY	1,00	29 000,0
36	Xo‘jaariq MFY	0,90	26 100,0
37	Obisiyo MFY	1,00	29 000,0
38	Farog‘at(Ko‘sa) MFY	0,90	26 100,0
39	Kum kishlok MFY	0,90	26 100,0
40	Kumarik MFY	0,90	26 100,0
41	Nayman MFY	0,90	26 100,0
42	Chek MFY	0,90	26 100,0
43	Istiklol MFY	0,90	26 100,0
44	Nayman buston MFY	0,90	26 100,0
45	Mexnatobod MFY	0,90	26 100,0
46	Xonariq MFY	0,90	26 100,0
47	Arabmozor MFY	1,00	29 000,0
48	Ko’larik MFY	0,90	26 100,0
49	Xonaka MFY	0,90	26 100,0
50	Aylanma jar MFY	0,90	26 100,0
51	Besarang MFY	0,90	26 100,0

Халқ депутатлари Тошлоқ туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-51-75-11-160-K/21-сон қарорига
8-илова

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2022 yil uchun (so‘m)
1	Toshloq MFY	1,10	286,0
2	Shodlik MFY	1,10	286,0
3	Suvboshi MFY	1,10	286,0
4	Furqat MFY	1,10	286,0
5	Do‘stlik MFY	1,10	286,0
6	Sadda MFY	1,10	286,0
7	Teraktagi MFY	1,10	286,0
8	Konizar MFY	1,10	286,0
9	Kattako‘cha MFY	1,10	286,0
10	So‘filar MFY	1,10	286,0
11	So‘kchilik MFY	1,10	286,0
12	Qo‘rg‘oncha MFY	1,10	286,0
13	Xamrak MFY	1,10	286,0
14	Qamchipurush MFY	1,10	286,0
15	Piyozchilik MFY	1,10	286,0
16	Axshak MFY	1,10	286,0
17	Yakkovut MFY	1,10	286,0
18	Qanjirg‘a MFY	1,00	260,0
19	Axshakguzar MFY	1,00	260,0
20	Tog‘liq MFY	1,00	260,0
21	Xotinqumi MFY	1,00	260,0

22	Varzak MFY	1,00	260,0
23	Qipchoqariq MFY	1,00	260,0
24	O‘zbekiston MFY	1,00	260,0
25	Bo‘ston MFY	0,90	234,0
26	Zarkent MFY	1,00	260,0
27	Jarqishloq MFY	1,00	260,0
28	Chuqurqishloq MFY	1,00	260,0
29	Yangiyo‘l MFY	1,00	260,0
30	Turvat MFY	0,90	234,0
31	Yuqoriqishloq MFY	0,90	234,0
32	Guzarboshi MFY	1,00	260,0
33	Soybo‘yi MFY	1,00	260,0
34	Ucholish MFY	1,00	260,0
35	Quyi Yakkatut MFY	1,00	260,0
36	Xo‘jaariq MFY	0,90	234,0
37	Obisiyo MFY	1,00	260,0
38	Farog‘at(Ko‘sa) MFY	0,90	234,0
39	Qumqishlok MFY	0,90	234,0
40	Qumarik MFY	0,90	234,0
41	Nayman MFY	0,90	234,0
42	Chek MFY	0,90	234,0
43	Istiqlol MFY	0,90	234,0
44	Nayman bo’ston MFY	0,90	234,0
45	Mexnatobod MFY	0,90	234,0
46	Xonariq MFY	0,90	234,0
47	Arabmozor MFY	1,00	260,0
48	Kularik MFY	0,90	234,0
49	Xonaka MFY	0,90	234,0
50	Aylanma jar MFY	0,90	234,0
51	Besarang MFY	0,90	234,0